

O‘ZBEK XALQI ETNOGENEZI, ETNIK TARIX TARIXSHUNOSLIGI.

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti
402-guruh talabasi Nozimova Oyshaxon*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbek xalqi kelib chiqishi va rivojlanishi borasidagi etnogenez, etnik tarix tarixshunosligi masalalari yuzasidan yozilgan asarlar va ularning qimmatlilik darajasi borasida bugungi kun olimlarining bildirgan fikr mulohazalari va ularga bag‘ishlab yozgan asarlari tahlillari haqda batafsil ma’lumot berilgan.

Kirish: IX-XII asrlar Turkiston xalqlarining etnik tarixida ulkan davr bo‘ldi. Qadimda Turon yerlarida yashagan o‘troq dehqon, hunarmand va ko‘chmanchi chorvador aholining asrlar davomida yaqindan olib borgan o‘zaro iqtisodiy va etnik aloqalari natijasida bu ulkan hududda dastavval qadimiy yozma manbalarda Sug‘d, Xorazm, Farg‘ona, Shak va Toxar nomlari ostida tilga olingan qator voaha xalqlari tashkil topadi. Ular sharqiy eroniy tillarga mansub sug‘diy, xorazmiy, shak va toxar tillarida so‘zlashardilar. Bu xalqlardan janubda forsiyzabon ajam xalqi, shimolda esa turkiy tilda so‘zlashuvchi chorvador qabilalar yashar edilar. Shu boisdan bu diyor qadim zamonlardayoq turkiy va forsiyzabon nufuslarning doimiy muloqot maskaniga aylanib, uning tub joyli aholisi shimoldan turkiy tilda so‘zlashuvchi qabilalarning, janubdan esa forsiyzabon xalqlarning kuchli ta’siri ostida istiqomat qilardi. VII-VIII asrlarda turkiy aholining katta qismi Yettisuv, Shosh hamda Farg‘ona vodiysida, kamroq qismi Zarafshon va Qashqadaryo vohasida yashar edi. Ular turkiy tilni qabul qilgan tub joy aholidan hamda bu yerga kelib o‘rnashgan chorvador qabila va urug‘lardan iborat edi. Bu turkiy aholi istiqomat qilgan o‘lka VII asrdan boshlab «Turkiston» nomi bilan atalgan. XI asrda Movarounnahrda Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi bilan qarluq, o‘g‘uz, chigil, yag‘mo va boshqa turkiy qabila va urug‘larning Shosh, Farg‘ona va boshqa viloyatlarda o‘troqlashishi jadallashdi. Shunday qilib, asrlar osha Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda sodir bo‘lgan o‘ta murakkab siyosiy vaziyatda muttasil davom etgan etnik jarayonlarning oqibati tufayli IX- XII asrlarda o‘zbek xalqi tashkil topdi. Bu xalqning nomi sharifi uning o‘zidan ancha-muncha yosh bo‘lsa ham, u qadimgi Turonning ikki tilda so‘zlashuvchi o‘troq dehqon va hunarmand hamda chorvador aholisining bevosita merosxo‘ri edi.

XX-XXI asr boshlari ilmiy tadqiqotlarida o‘zbek xalqi etnogenezi masalalarining yoritilishi mavzusi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni ikki guruhga ajratib tahlil qilish mumkin. Birinchi guruhga sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar va chop etilgan adabiyotlar, ikkinchi guruhga esa mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar

va nashr etilgan adabiyotlar kiradi. O'zbek xalqi etnogenezi masalalari sobiq ittifoq davrida keng o'rganilgan. Ular maxsus ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. XX asr 40-50-yillarda A.Yu.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, A.N.Bernshtam, L.V.Oshanin, A.A.Semyonov, Ya.G'.G'ulomov, K.V.Trever, B.G.Gafurov, B.D.Grekov, V.V.Ginzburg va boshqalar yozma manbalar, birlamchi arxeologik va antropologik materiallar hamda etnografik tadqiqotlar va kuzatuvlar orqali o'zbek xalqi etnogenezi masalasida asarlar yozdilar.

XX asrning 60-90-yillardan boshlab G.F.Debets, A.N.Bernshtam, V.V.Bartol'd, M.G'.Vahobov, M.Ermatov, Yu.V.Bromley, B.X.Karimsheva, A.Asqarov, K.Shoniyozov, I.Jabborov, T.Xodjayov, B.Ahmedov, B.A.Litvinskiylar o'zbek xalqining etnogenezi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bordilar. K.Sh.Shoniyozov o'zbek xalqi kelib chiqishi masalasidagi izlanishlarida asosan, turkiyzabon ajdodlarimizning mahalliy etnik zaminda shakllanganligini isbotlashga harakat qiladi. Olim o'z tadqiqotlarida o'zbek xalqi shakllanishining etnogenez bosqichiga emas, etnik tarix masalalariga e'tiborini qaratadi. K.Sh.Shoniyozov o'zbek xalqi shakllanish jarayoni XI asr boshida nihoyasiga yetganligini o'z asarida bayon qiladi. Akademik A.Asqarov sobiq SSSR hududiga kiruvchi ko'plab respublikalar, birinchi navbatda O'zbekiston hududiy doirasida uzoq yillar davomida keng ko'lamli arxeologik izlanishlar olib boradi. A.Asqarov arxeologik va antropologik materiallarni yozma manbalar bilan qiyosiy solishtirish va kompleks xarakterda o'tkazgan tadqiqotlari natijasida o'zbek xalqi etnogenezi ikki tilli qabila va urug' jamoalarining(turkiy, sug'diy, xorazmiy, bohtariy, fraganiy, sak) uzoq asrlar davomida o'zaro iqtisodiy, madaniy aloqalari va etnik qorishuvlari tufayli tarkib topgan elat-xalq ekanligini isbotladi. Olim shuningdek, uzoq yillik tadqiqotlari orqali o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasi, shakllanish bosqichlari, shakllanishida ishtirok etgan etnik komponentlar, yakuniy bosqichining davriy sanasini aniqladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Sh.T.Zokirov, D.Xoshimova, A.X.Doniyorov, G.K.Xodjayova, G'.B.Boboyorov, B.X.Matboboev, Sh.S.Kamoliddin, X.M.Mamadaliyev, M.T.Jumaniyozova, A.E.Qurbonov, M.Sh.Usmonov, O.U.Inomov, V.Abirov va boshqalar o'zbek xalqining etnik tarixiga oid qator asarlar yozishgan.

Xalqimizning kelib chiqishi, hozirgi nomda atalishiga doir turli tadqiqotlar va izlanishlar amalga oshirilgan. Bularga eng yirik tarixchi olim K.Sh. Shoniyozovning «O'zbek xalqining shakllanish jarayoni»ni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Asarda monografiya bo'lib, O'rta Osiyo va Qozog'iston mintaqasida mazkur mavzuda yaratilgan ilk jiddiy tadqiqot hisoblanadi. Unda muallif nihoyatda turli-tuman manbalarning ko'pdan-ko'p ma'lumotlari asosida o'zbeklar etnogenezi va etnik tarixining haqqoniy manzarasini gavdalantirishga harakat qilgan. Tadqiqotning xronologik ko'lami uning muhimligidan dalolat beradi. Zero, u o'zbeklar tarixi va

ularning xalq sifatida shakllanishi bilan bog'liq bir necha asrlarni (eramizdan avvalgi II, I asrlardan - milodiy XIX asrgacha) qamrab oladi. K.Shoniyozov tadqiqoti - olim tomonidan qariyb yarim asr mobaynida etnogenez va etnik tarix muammolarining o'zaro bog'liq nihoyatda murakkab majmuini o'rganish mahsuli. Olim bu yo'nalishda ko'plab izlanishlari asnosida bir qator yirik kitoblarni bizga meros qoldirdi. Bular 1964 yili - «O'zbeklar - qarluqlar (tarixiy-etnografik ocherk)», 1974 yili - «O'zbek xalqining etnik tarixidan», 1990 yili - «Qang' davlati va qang'lilar» hamda 1999 yili - «Qarluqlar davlati va qarluqlar» monografiyalarini yaratdi. O'zbek etnologiya fanida Karim Shoniyozovdek O'rta Osiyo xalqlarining etnik tarixi bo'yicha har tomonlama keng bilimga ega boshqa tadqiqotchi yo'q. Olim ko'plab tadqiqotlar va asarlar muallifi bo'lib u 6 monografiya, 200 dan ortiq ilmiy maqolalar e'lon qilgan. O'zining umumlashtiruvchi ishlarida u etnik jarayonlarning tarixiy negizlariga asoslanib, o'zbek xalqi vujudga kelishining qator nazariy masalalarini idrok etishga intildi. Xalq uning etnonimi va o'zbek tilining shakllanishidan ilgari paydo bo'lganligidan bu jarayon xiyla murakkab kechganligi ma'lum. K.Sh.Shoniyozov o'z ishlarida bu hodisaning qonuniyligini isbotlay oldi. Murakkab etnik jarayonlar borasidagi metodologik qarashlarini «O'zbek xalqi etnogenezining ayrim nazariy masalalari» (1998) va «O'zbek xalqi shakllanish jarayonining ayrim masalalari» (1999) kabi maqolalarida bayon qildi. Ularda olim xalqlar etnogenezining qator nazariy masalalarini tushuntirib berdi, o'zbek xalqi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatdi, mintaqadagi etnik birlim yurtlarining ilmiy asoslangan tasnifini ishlab chiqdi, shuningdek, O'zbekiston hududidagi eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha kechgan etnik jarayonlarni davrlashtirdi. K.Shoniyozov o'zining shaxsiy salohiyatini ishga sola olgan tadqiqotchilar sirasiga kiradi.

Xulosa: Xalq biologik hosila emas, balki ijtimoiy uyushma birligidir. U darhol hosil bo'lmaydi, balki uzoq davom etadigan etnogenetik jarayon mahsuli va etnik alomatlar yig'indisidir. Etnik alomatlarining shakllanishi esa etnogenetik jarayonlar davomida birin-ketin sodir bo'lib boradi. Xalq etnogenezi yakunlangach, uning etnik tarixi boshlanadi, ya'ni shakllangan xalq tarixi boshlanadi. Xalq feodal jamiyatining ijtimoiy mahsuli bo'lib, u ba'zi hollarda dastlabki sinfiy jamiyat sharoitida ham yuz berishi mumkin (masadan yunonlar). Xalq tarixi o'z iqtisodiy-xo'jalik va etnomadaniy rivojining ma'lum nuqtasiga yetgach, uning millat bo'lib shakllanish jarayoni boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). *International Journal on Integrated Education*, 2(5), 212.
2. G'afforov, Y., Nafasov, A., & Nafasova, Z. (2020). From the History of the Beginning of the "Great Game". *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 2798-2802.

3. Doniyorov A. X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi O'quv qo'llanma. Toshkent:2014. 233 b.
4. Doniyorov A.X. Doniyorov A. X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi O'quv qo'llanma. 2020. 451 b.